



A NEW STAGE IN IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF PERSONNEL TRAINING IN CUSTOMS AUTHORITIES

Achilov Alisher Temirovich

Tashkent International University Professor of the Department of
Legal Sciences, doctor of philosophy in law (PhD, associate
professor, e-mail: achilov1976@mail.ru

Adizov Azamat Azimboy o'g'li

Abzalov Miraziz Mirgiyazovich

Employees of the Customs Committee under the Ministry of
Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18347687>

ARTICLE INFO

Received: 15th January 2026

Accepted: 22nd January 2026

Online: 23rd January 2026

KEYWORDS

Personnel, personnel
selection, personnel training,
dual education, practice,
educational process, quality
of Education, Professional
Development.

ABSTRACT

*In the article, the author reflected on the results of the
measures carried out to improve the organizational and
legal framework for the training of personnel in customs
bodies, the reforms carried out to digitize educational
processes and strengthen the material and technical
base.*

BOJXONA ORGANLARIDA KADRLAR TAYYORLASHNING TASHKILIY- HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI BOSQICHI

Achilov Alisher Temirovich

Tashkent International University "Huquqiy fanlar" kafedrasi professori v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, e-mail: achilov1976@mail.ru

Adizov Azamat Azimboy o'g'li

Abzalov Miraziz Mirgiyazovich

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya
vazirligi huzuridagi Bojxona Qo'mitasi xodimlari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18347687>

ARTICLE INFO

Received: 15th January 2026

Accepted: 22nd January 2026

Online: 23rd January 2026

KEYWORDS

Kadrlar, kadrlarni tanlash,
kadrlarni tayyorlash, dual
ta'lim, amaliyot, o'quv
jarayoni, ta'lim sifati, malaka
oshirish.

ABSTRACT

*Maqolada mualliflar bojxona organlarida kadrlar
tayyorlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini
takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-
tadbirlar, ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish va
moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha
amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari bo'yicha
fikr yuritgan.*



Mamlakatimizda davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samarali faoliyat olib borishlari uchun kadrlar salohiyati muhim o'rin tutadi. Chunki yurtimizning ravnaqi, tinchligi va osoyishtaligi, shaxs huquq va erkinliklari hamda mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ishonchli himoya qilinishini ta'minlash vazifasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni asosida "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadri-qimmati, huquq hamda erkinliklarini samarali himoya qilishga yo'naltirish asosiy maqsad sifatida belgilanganligi kadrlar zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi

Shunga muvofiq, bojxona organlarini malakali kadrlar bilan ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Institut bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tayanch oliy harbiylashtirilgan ta'lim hamda ilmiy-metodik muassasa hisoblanadi.

Institutda zamonaviy talablar asosida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha xalqaro standart va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish, kelgusida bojxona xodimlari kompetensiyasini oshirish, ularning bilim va kasbiy ko'nikmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Buning natijasida so'nggi yillarda Institutda ta'lim jarayonini milliy va xalqaro standartlar asosida tashkil etish va samaradorligini oshirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-mart kuni "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bojxona sohasi uchun tarixiy va muhim ekanligi quyidagilarda ko'rish mumkin:

- sohaga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etilishi;
- bojxona organlari axborot tizimlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish;
- bojxona organlari tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish.

Shuningdek, qarorning 7-ilovasi bilan Bojxona organlarida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha 54 ta banddan iborat chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanib, amalga oshirish mexanizmlari aniq belgilab berilganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Biz quyida ushbu qaror bilan bevosita bojxona organlarida kadrlar tayyorlash yo'nalishiga qaratilgan ayrim masalalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Institut faoliyatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda Institut o'quv rejalari hamda o'quv jarayonlarini dual ta'lim asosida tashkil etish orqali, kursantlarning o'qish bilan bir vaqtda, nazariy qismi Institutda, amaliy qismi esa Bojxona qo'mitasi, Markaziy bojxona laboratoriyasi, Bojxona rasmiylashtiruvi markazi, xududiy



bojxona boshqarmalari, "Toshkent-AERO" IBK, bojxona postlarida o'tkaziladigan ta'lim jarayoni tashkil etildi;

kursantlar uchun bojxona organlari, laboratoriyalar hamda sud organlari faoliyatiga oid tajribalarini o'rganish mexanizmlari takomillashtirildi;

kursantlarning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida turli xildagi fan to'garaklari tashkil etildi.

Shuningdek, mutaxassislik fanlari bo'yicha tasdiqlangan o'quv mashg'ulotlari rejalari asosida ma'ruza mashg'ulotlari Bojxona qo'mitasida tashkil etilgan "Raqamlashtirish, ta'lim va amaliyot kampusi"da, amaliy mashg'ulotlar esa bojxona postlarida o'tkazib kelinmoqda. Ta'lim jarayonlari uzluksizligini ta'minlash va ta'lim jarayonida sun'iy intellekt elementlarini keng qo'llagan holda kursant va tinglovchilarda chuqur nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilish maqsadida "Data Science" to'garagi tashkil etildi.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda Institutning 3 va 4-kurs kursantlari uchun Bojxona qo'mitasi Markaziy apparati sohaviy boshqarmalari, Toshkent shahri va viloyati bo'yicha boshqarmalari hamda "Toshkent-Aero" IBKning mutaxassislari jalb etgan holda Praktikum mashg'ulotlari tashkil etib kelinmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz boshchiligida amalga oshirilgan turli sohalardagi islohotlar bilan bir qatorda bojxona organlarida kadrlar tayyorlash sohasiga qaratilayotgan e'tiborlari tufayli bugungi kunda Institut kursantlarining 207 nafari (57 %), IELTS hamda CEFR kabi sertifikatlarga ega bo'lmoqda.

Institut faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta'lim va boshqaruv tizimlarini raqamlashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Xususan, hozirgi kunda ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish bo'yicha "Ta'lim menejmenti" avtomatlashtirilgan axborot tizimi, professor-o'qituvchilar faoliyati samaradorligini reyting baholash bo'yicha "Samaradorlikni baholash" moduli hamda bojxona organlari xodimlari malakasini oshirish bo'yicha "Malaka" avtomatlashtirilgan axborot tizimlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kamida uch yillik ilmiy, pedagogik yoki amaliy ish tajribasiga ega shaxslarni Institutning professor-o'qituvchilar (ofitser va serjantlar) tarkibi lavozimlariga bir yillik shartnoma asosida (*maxsus unvonga ega bo'lmagan holda*) yoki soatbay haq to'lash shartlarida ishga qabul qilish tartiblari ishlab chiqilib, professor-o'qituvchilar tarkibini malakali mutaxassislar bilan jamlash imkoniyatlari kengaytirildi.

Mazkur islohotlar natijasida ta'lim jarayonlariga o'z kasbining fidoiysi bo'lgan va tegishli talablarga javob beradigan mutaxassislarni professor-o'qituvchilar tarkibiga qabul qilish Institutda ta'lim sifatini oshirishi va malakali kadrlar tayyorlashda muhim o'rin egallaydi.

Yuqoridagi axborot tizimlari yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan, o'quv-tarbiya jarayonida samarali natijalarga erishib kelayotgan professor-o'qituvchilarni ochiq shaffof tarzda, inson omilisiz aniqlash hamda ularning mehnatini munosib rag'batlantirishga, ta'lim jarayonlarini tashkil etish va



boshqarishni raqamlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga, shuningdek, bojxona organlari xodimlari malakasini oshirish yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Institutning milliy va xalqaro talablarga to'laqonli javob berishi attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazilib tegishli sertifikat berilishida hamda "Bojxona ishi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi Jahon bojxona tashkilotining PICARD professional standartlarga muvofiqligi bo'yicha akkreditatsiyadan o'tib sertifikatni olganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ta'lim jarayonlarida oliy ta'lim muassasalari hamda tadqiqot markazlari bilan hamkorliklar kengayib bormoqda, bunga misol sifatida respublikaning 20 dan ortiq ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlari hamda xorijiy davlatlarning bojxona xizmatlari ta'lim muassasalari bilan 10 dan ortiq hamkorlik memorandumlari imzolandi. O'rnatilgan akademik hamkorliklar doirasida xalqaro darajada masofaviy o'quv mashg'ulotlari tashkil etib kelinmoqda.

Bojxona instituti Jahon bojxona tashkilotining "CLIKC" (Customs Learning and Knowledge Community) elektron ta'lim portali a'zosiga aylanib, a'zo bo'lgan xodimlar 2175 tani tashkil etdi.

IT va Sun'iy intellekt bo'yicha Respublika turnirida Institut kursantlari 50 ta jamoa orasidan birinchi va ikkinchi o'rinlarni qo'lga kiritganligi, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida bojxona sohasiga oid turli yo'nalishlar bo'yicha o'quv kurslari tashkil qilinib, ularda bojxona xodimlari o'qitib kelinayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

26 yanvar — O'zbekiston Respublikasida o'z kasbiga eng yuksak sadoqat bilan xizmat qilayotgan, davlat chegaralarida xavfsizlikni ta'minlab kelayotgan fidoyi kasb egalarining bayramidir. Bu sana — Bojxona xodimlariga bo'lgan chuqur ehtirom, ishonch va yuksak e'tirof ramzidir.

Bojxona xizmati — bu faqatgina nazorat emas, balki ulkan mas'uliyat, yuksak zakovat, tezkor fikr va halollikni talab etuvchi sharaflı yo'ldir. Bojxona xodimlari har kuni mamlakat iqtisodiy xavfsizligini, jamiyat salomatligini va qonun ustuvorligini ta'minlash yo'lida og'ir, ammo sharaflı xizmatni bajarmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, bojxona organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridagi vazifalarning o'z vaqtida va samarali bajarilishi avvalo malakali kadrlar omiliga bog'liq bo'lib, professional kadrlar mamlakatimiz tinchligi va osoyishtaligi, chegaralarimiz daxlsizligi hamda iqtisodiy xavfsizligimiz ta'minlashda muhim o'rin tutadi va bunda, Muhtaram Yurtboshimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar bojxona organlarida kadrlar tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishda asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktyabrdagi yangi tahrirdagi "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi O'RQ-502-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3995-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-mart kuni "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-122-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-57-son Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktyabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi 816-son qarori.